

SUN'IY INTELEKTNING HUQUQIY HUJJATLARDA QO'LLANILISHI

Tadjibayeva Salima Uralbayevna

Toshkent davlat yuridik universiteti, Biznes huquq fakulteti 1-A gruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) tizimlari huquqiy hujjatlarda qo'llanilishi, ahamiyati, yuridik tadqiqotlar va hujjatlarni tahlil qilish, tushunchasi, raqamli texnologiyalarda qo'llanishi, shakllari, huquqiy tadqiqotlari, yoritib boriladi. Maqolada Kira Systems, ROSS intelligence, LegalZoom, Lex Machine, DoNotPay tizimlari, xalqaro huquqiy tajriba (O'zbekiston va xorij tajribasi) hamda O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan siyosiy huquqiy chora-tadbirlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, yuridik hujjatlar, huquqiy hujjatalar, Kira Systems, ROSS intelligence, LegalZoom, Lex Machine, DoNotPay tizimlari

Kirish

Sun'iy intellekt – bu sun'iy intellekt tizimlarining kognitiv funksiyalarni namoyon qilish qobiliyatidir; shu jumladan o'z tajribasidan berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar (yoki undan yuqori hayvonlar) mavjud bo'lgan vazifalarni bajaradi.

Natijalar

Sun'iy intellekt shakllari, sun'iy intellekt tizimi mohiyatan ilgari faqat insonga xos bo'lgan funksiyalarni bajarishga qodir bo'lgan kompyuter ekanligi ta'kidlangan. Umuman olganda, bu haqiqat, lekin ba'zida sun'iy intellektning turli shakllari ajralib

turadi. Bunday holda, sun'iy intellektning shakli u o'ralgan qobiq sifatida tushuniladi, keyin sun'iy intellektning ikki shaklda mavjudligi mumkin.¹

Kira Systems- 2011–yilda tashkil etilgan (asoschilari: **Noah Waisberg** va **Dr. Alexander Hudek**) 2018 yilda Insight Verture Partners kompaniyasidan 50 million dollarlik Series A investitsiya olgan.

Kira Systems- huquqiy hujjatlarni, ayniqsa shartnomalarni tahlil qilish va ma'lumot ajratish uchun mo'ljallangan sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish (machine learning) yechimini taklif qiluvchi tizim.

Foydalanish sohalari va afzalliklari

- Huquq firmalari va korporativ yuridik bo'limlar shartnomalarni tez va aniq tahlil qilish uchun
- M\A (birlashtirish va sotib olish) jarayonlari hujjatlarni tekshirish va ma'lumotlarni tez chiqarish
- Korparatsiyalarda shartnoma bazasidan ma'lumotlarni analiz qilish, risklarni aniqlash
- Hujjatlarni boshqarish, qidiruv, tahliliy izlanishlar uchun ham foydalaniladi

Afzalliklari bu-tezlik va samaradorlikni oshirishda, bir necha soat yoki kunlar emas, balki qisqa muddatda ko'p hujjatlarni tahlil qilish mumkin

Aniqlik, inson xatosini kamaytirish va kriteriyalar asosida ma'lumot ajratish.

Moslashuvchanlik, foydalanuvchi o'z xohishiga ko'ra smart fields yaratishi mumkin.

Eksport va hisobot:ajratilgan ma'lumotni turli formatlarda (Excel,Word,PDF) eksport qilish imkoniyatini beradi.

Generativ AI qo‘llab-quvvatlagan izohlar va savol-javob interfeysi, masalan hujjatdan savol qilib, javob olish tushuniladi.

ROSS Intellegence-bu sun’iy intellekt (AI) asosida ishlovchi huquqiy texnologiya hisoblanadi. Bu huquqiy texnologiya (legal tech) kompaniyasi bo‘lib, advokatlar va yuristlar uchun huquqiy tadqiqot (legal research) jarayonini avtomatlashtirish va soddalashtirish uchun yaratilgan.

Hozirda ROSS Intelligence faoliyatini to'xtatgan bo'lsada ammo u huquqiy AI rivijida muhim bosqich bo'ldi.

Uning asosiy g'oyalari hozirda Harvey AL, Casetext Co Counsel va Lexis+AI kabi yangi platformalarda davom etmoqda.

Huquqiy hujjatlarda qo'llanishi –bu sun'iy intellekt asosidagi huquqiy tadqiqot (legal research) tizimi bo'lsada, u huquqiy hujjatlar bilanishlash jarayonida avtomatlashtirish uchun keng qo'llanilgan.

ROSS Intelligence-huquqiy hujjatlarda qo'llanilishida uni o'qiy oladi, ularning mazmunini tushunadi va asosiy ma'lumotlarni ajratib beradi. Sud hujjatlarini tahlil qilib, mavzuga oid dalillarni ajratib ko'rsatadi.

LegalZoom-AQSh da joylashgan yuridik texnologiya (legal tech) kompaniyasi bo'lib, u onlayn huquqiy xizmatlarni taqdim etadi.

2001-yilda kaliforniyada tashkil etilgan va hozirda millionlab foydalanuvchilar, foydalanib kelmoqda.

LegalZoomning asosiy maqsadi fuqarolar va kichik bizneslar uchun huquqiy xizmatlarni soddalashtirib va arzonlashtirib beradi. Masalan: ular advokat yollamasdan turib, turli hildagi huquqiy hujjatlarni onlayn tarzda tayyorlash imkonini beradi.

Assosan, korporatsiya yoki yakka tartibdagi tadbirkorlikni ochish, ruyxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlarni tayyorlab beradi. Advokatlar bilan

hamkorlik qiladi va foydalanuvchilar onlayn orqali malakali yuristlardan maslahat oladi.

Ishlash tamoyili va afzalliklari:

1. Foydalanuvchi sayt orqali kerakli xizmat turini tanlaydi
2. So‘rovnoma to‘ldiradi (masalan, kompaniya nomi, manzili, huquqiy shakli)
3. Tez va qulay ishlaydi.
4. Advokat xizmatlariga nisbatan arzon
5. Kichik bizneslar uchun juda keng foydalaniladi
6. Qo‘shimcha ravishda advokatlar bilan onlayn maslahat olish imkoniyati mavjud bo‘lib, hujjatlarni avtomatik tarzda tayyorlab, davlat organlariga topshiradi yoki foydalanuvchiga taqdim etadi.

Legal Zoom-huquqiy hujjatlar bilan ishlash jarayonida juda soddalashtirilgan foydalanuvchi advokat yordamisiz ham hujjat tayyorlab, uni yuridik jihatdan to‘g‘ri shaklda rasmiylashtirib beradi.

Xizmat turini tanlashda

1. Bioznesni ro‘yxatdan o‘tkazadi (LLC korporatsiya)
2. Vasiyatnoma (Wil)
3. Ishonchnoma (Power of Attorney)
4. Shartnoma (Contract)

Bu bosqichda sun'iy intellekt tizimi kiritilgan ma'lumotlar asosida hujjatning mos qismlarini avtomatik tarzda to'ldiradi.

Sun'iy intellekt –bu raqamli texnologiyalar, butun iqtisodiyot va jamiyatning raqamli transformatsiyasini ta'minlaydigan texnologiyalar bo'lib, ular axborotni raqamlarga aylantirilgan formatda saqlash va uzatishga asoslangan. Sun'iy intellekt texnologilari, bu-ilgari insonning kognitiv qobiliyatlaridan foydalanishni talab qiladigan vazifalarni (nutq va visual aniqlash, analitik qarorlar qabul qilish, murakkab mantiqiy operatsiyalar, to'plangan ma'lumotlar asosida kelajaakni bashorta qilish va boshqalar) bajarishga imkon beradigan raqamli texnologiyalar guruhi “uchdan- end”deb ataladigan boshqa raqamli texnologiyalar guruhlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhokama

Hozirgi vaqtda Rossiyada “Rossiya Federatsiyasining raqamli iqtisodiyoti”keng ko'lamli Milliy dasturi amalga oshirilmoqda. U Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi 204-sonli “Rossiya Federatsiyasining 2024 yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning milliy maqsadlari va strategic vazifalari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan, hamda 2018 yil 24-dekabrda Prezident huzuridagi Strategik rivojlanish va milliy loyihalar bo'yicha kengash Prezidiumning yig'ilishda tasdiqlagan.

Sun'iy intellektni rivojlanish bo'yicha milliy strategiyalar dasturiy hujjatlardir. 2020 yilga qadar bunday strategiyalar dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida, jumladan, Rossiya, Xitoy, AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk

Britaniya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqalarda qabul qilingan.

O'zbekistonda rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli, 26.08.2021 yildagi PQ-5234-sonli.

“Raqamli O'zbekiston-2030” Strategiyaga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

Quyidagilar tasdiqlangan.²

- sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish bo'yicha chora- tadbirlar dasturi (keying o'rinlarda -Dastur)
 - aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish,
 - foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruchi sun'iy intellekt sohasini innavatsion ishlanmalarning mahalliy okotizimini yaratish,
 - sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab
- SJIF: 5.051

chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarning tegishli ma'lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta'minlash,

- mahalliy korxonalar va mutahasislarning sun'iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek zarur ta'lim muhitini rivojlantirish ko'zda tutilgan.³

Xulosa

So'ngi yillarda yurtimizda sun'iy intellekt tehnalogiyalarini joriy etish, ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish yuzasidan, sohani jahon talablari darajasida ko'tarish kerak.

Sun'iy intellekt shakllari, sun'iy intellekt tizimi mohiyatan ilgari faqat insonga xos bo'lgan funksiyalarni bajarishga qodir bo'lgan kompyuter ekanligi ta'kidlangan. Umuman olganda, bu haqiqat, lekin ba'zida sun'iy intellektning turli shakllari ajralib turadi. Bunday holda, sun'iy intellektning shakli u o'ralgan qobiq sifatida tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Filipova, I. A. (2022). Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: Ma'ruza kursi (Z. O. Kuvandikov, tarj.) [Lecture notes]. Samarqand davlat universiteti. <https://share.google/Vqvn8fYXaWfyxSRr>.

2. PQ-4996-son, 17.02.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. <https://lex.uz/docs/-5297046>.